

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” mavzusida ilmiy-amaliy seminar o’tkazildi

Tarixiy merosni asrab-avaylash, o’rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo’nalishlaridan biridir.

O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institutida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi bilan hamkorlikda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” mavzusida ilmiy-amaliy seminar o’tkazildi.



Mazkur ilmiy-seminar ko’zlangan maqsad kursantlar qalbida milliy ruh, ona-Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg’usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarimizning boy ma’naviy merosiga munosib avlod qilib tarbiyalashda tarix ilmining ahamiyatini ko’rsatishdir.

Ilmiy-amaliy seminarda Institut professor-o’qituvchilari, soha mutaxassislari, kursantlar va O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning yetuk tarixchi olimlari ishtirok etishdi.

Tadbir davomida ikki muassasa o’rtasida imzolangan Hamkorlik memorandumi Institutning professor-o’qituvchilari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlash, Institutning iqtidorli kursantlarini izlab topish, tanlash va ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish kabi istiqbolli loyihalar o’z aksini topganligi bilan ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, jahon miqyosida turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar tobora keskin tus olib borayotgan

bugungi tahlikali zamonda hayotning o'zi talab qilayotgan mezonlar asosida doimo ogoh va hushyor bo'lib yashash, kursantlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishda bu ilmiy-amaliy seminar muhim ahamiyat kasb etadi.